

bunyodkor g'oyalar

Категория: Миллий ғоя ва мафкура – Ғоянинг намоён бўлишига кўра турлари;

Муаллиф: Исроилов Б

Mustaqil O'zbekistonda shakllanayotgan vatanparvarlik bu boradagi tarixiy an'analardan, mavhum siyosiy shiorga aylanib qolgan sovet vatanparvarligidan farq qiladi. Bu – taraqqiyot taqdirini o'z qo'liga olgan, ona yurtining boy imkoniyatlaridan istiqlool va istiqbol manfaatlarini ko'zlab oqilona foydalanish yo'liga o'tgan, milliy birlik, birdamlik, tenglik va teng huquqlilik borasidagi qadriyatlarga tayanib milliy o'zligini taniy boshlagan xalqning ma'naviy fazilatidir.

Respublika aholisining asosiy qismini tashkil etuvchi o'zbeklarning shu tabarruk, ota-bobolaridan meros bo'lib qolgan zamindan boshqa vatani yo'qdir. O'zbekiston o'z nomi bilan o'zbeklarning ona yurti. O'zbeklar shu ona diyorni sevadi, uning tarixi, taqdiriga befarq qaray olmaydi. Bu - o'zbek milliy vatanparvarligining ma'naviy, ijtimoiy ildizlaridir. Shu vatan boy, barqaror, xalqlari ahil bo'lib, iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy jihatdan kamol topishi dunyodagi barcha o'zbeklarning manfaatlariga mos keladi.

O'zbekistonda yashayotgan barcha xalqlar, garchand ularning o'z vatanlari bo'lsa ham, mustaqil respublikamizda vaziyat barqaror bo'lib, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyot sur'atlari tezlashishidan manfaatdordirlar. Respublikamizda yashayotgan boshqa xalqlar vakillarining mamlakatimiz taraqqiyotiga, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik saqlanishiga qo'shgan va qo'shayotgan hissasi ortib bormoqda. Bu esa O'zbekiston vatanparvarligi umummilliy ma'naviyatga ham aylanganini ko'rsatadi.

«Turkiston – umumiy uyimiz», degan g'oyaga asoslangan vatanparvarlik ham mazkur mintaqada yashovchi xalqlar o'rtasidagi birdamlik, hamkorlik va hamjihatlikni mustahkamlovchi ma'naviy, mafkuraviy omildir. Umumiy uyimiz bo'lgan Turkiston zamini barchamizning minglab yillar davomida shakllangan umumiy vatanimiz hamdir. O'zbekiston respublikasida bunyodkor g'oyalarning tutgan urni, ularning tuzilishi haqida ko'rib chiqamiz.

Bunyodkor g'oya – 1)O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan tushuncha hisoblanadi;

2) bu g'oya odamlarni, turli guruh va qatlamlar, millat va davlatlarni taraqqiyot sari yetaklovchi, xalqni ezgu maqg'sad yo'lida ,bhufkbrlf harakat qilishga undovchi g'oya.

Bunyodkor g'oya ta'sirida inson ezgulikka yetish, millatlar va davlatlar esa ozodlik va mustaqillikka erishish uchun intiladi, adolat va haqiqat tantanasi yo'lida kurashadi, buyuk tarixiy g'alabalarni qo'lga kiritadi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, o'zida gumanizm talablarini aks ettiradigan, inson kamolotiga, jamiyat rivojiga, millat taraqqiyotiga, xalqning iroda va intilishlariga xizmat qiladigan, uni jipslashtirib, oliy maqsadlarga safarbar etadigan g'oyalar bunyodkor g'oyalardir. (LUG'ATdan)

Shu sababli ham milliy g'oyaning asosiy tushuncha va prinsiplari tizimida insonning jamiyatda o'rni bunyodkor kuch sifatida belgilangan. Istiqloolning bosh g'oyasi ham, asosiy g'oya va tushunchalari ham bunyodkorlik falsafasi bilan yo'g'rilgan. Chunki bunyodkorlik – xalqimizning eng olijanob fazilati. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, o'zbek tom ma'noda bunyodkordir, do'ppisida suv tashib bo'lsa ham daraxt ko'kartiradi. Darhaqiqat, mustaqillik yillarida mamlakatimizda iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy-madaniy, ma'naviy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, erkinlashtirish jarayonlari bunyodkorlik ishlariga yorqin misol bo'ladi. Ming yillar utsa xam, ulug'ajdodlarimizning matonati va kaxramonligi xalkning xotirasidan

uchmaydi. Chunki ular yuksak goyalar – Vatan ozodligi, el-yurt baxt-saodati, ilmu urfon rivoji yulida jon fido qilganlar. Bunyodkorlik goyalari yurtni obod, xalk xayotini farovon qilishdek olijanob maqsadlar bilan ajralib turadi.

Islom Karimov suzlari bilan aytganda «Uzbek tom ma'noda bunyodkordir». «Ezgu fikr, ezgu suz va ezgu ishni alkayman. Uzimni ezgu fikrga, ezgu suzlarga, ezgu ishlar amaliga baxshida kilaman, barcha yomon fikrlardan, yomon suzu yomon ishlardan yuz ugiraman», deyiladi «Avestoda». Bu yuksak goyalar zardushtiylarning ulmas mafkurasi edi.

G'oyalarni iloxiy tushuncha deb bilgan Aflotun (er.av. 427-348 y.y) ning xam asosiy goyasi ezgulik va yagonalik edi. Sukrot (er.avv. 470-399 yy) adolatga xilof bulgan davlat boshkaruvining barcha shakllarini tankid kiladi, fakatgina adolatli, demokratik davlat boshkaruvini yoklab chikadi. Abu Nasr Farobiy (873-990) ning «Fozil odamlar shaxri» tugrisidagi Alisher Navoiyning insonparvarlik goyalari bunyodkor goyalarga misol buladi. Xitoy mutafakkiri Konfusi (er.avv. 551-479) ning fanlar ijtimoiy kelib chikishi yoki jamiyatdagi mavkei orkali emas, balki odamiylik, adolatparvarlik, xakguylik kabi fazilatlariga erishishi tufayli kamolotga erishadi degan goyalari bunyodkor giyaga misoldir. Xind xalkining buyuk farzandi Maxatma Gandi (1869-1948yy) mustamlakachilikka karshi kurashning timsoli edi. U xindlar bilan musulmonlarni, din bilan siyosatni birlashtirishga xarakat qilgan. Unga xalk «Maxatma», «Buyuk kalb» deb nom bergan. Amir Temurning bunyodkorlik goyalari «Temur tuzuklari» dagi «Agar fukarodan birining uy-imorati buzilib, tuztishga kurbi yetmasa, kerakli uskunalarni yetkazib berib, unga yordam berilsin» degan kursatmasi, qilgan ishlari, kurulishlari, fozillarga xurmati bunyodkorlikka namunadir.

Jamiyatda ezgu g'oyalar barcha davrlarda yuksak orzular bilan yashashga, olijanob maqsadlar yo'lida e'tiqod bilan kurashishga o'rgatadi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha sohalaridagi bunyodkorlik ishlari bunga yorqin misoldir. Inson va jamiyat bor ekan, ezgulik g'oyalarining ziddi bo'lgan zulm va zo'ravonlik, qabohat va jaholat yangi-yangi shakllarda namoyon bo'lishi ham mumkin. Lekin ular insoniyatning adolat, tenglik, tinchlik, qardoshlik va farovonlik g'oyalariga tayanib, yuksak maqsadlar sari intilishlarini to'xtata olmaydi. Ezgu va yuksak g'oyalar odamlarni hamisha olijanob maqsadlar sari yetaklayveradi. Bunyodkorlik g'oyalari yurti obod, xalq hayotini faravon qilishdek olijanob maqsadlar bilan ajralib turadi. Ular insoniyat taraqqiyotiga erishgan davrlardan buyon jamiyat hayotining eng ezgu g'oyalari sifatida yashab kelmoqda.

Bunyodkor g'oya – insonni ulug'laydigan, uning kuch-g'ayrati va salohiyatini oshirib xalqi, Vatani, butun insoniyat uchun foydali ishlar qilishga safarbar etadigan, o'zida taraqqiyot, ma'rifat, do'stlik, tinchlik, adolat, halollik, poklik kabi ezgu his-tuyg'ularning urug'ini mujassam etadigan g'oyadir.

Ozodlik, mustaqillik, tinchlik, adolat, tenglik, hamkorlik, do'stlik, birodarlik, hurfiqrlilik, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, invonparvarlik, tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, xayrixoxlik, barqarorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, halollik, poklik va h.k.bunyodkorlik g'oyalarining ko'rinishlari bo'lsa, kelajakka ishon, adolat, haqiqatni tan olish, jur'atli bo'lish, sobitqadamlik, mehr-muruvvat, sahovatlilik, baynalminallik, millatlararo do'stlik va birodarlik, fidoiylilik, yurtga sadoqatlilik, taraqqiyparvarlik, iymon-e'tiqodlilik, vijdon erkinligi, safarbar etish, uyushtirish, faravonlik, tashabbuskorlik, ezgulik, yaratuvchilik, fikr erkinligi – bunyodkor g'oyalarga xos xususiyatlardir.

• Vatanparvarlik g'oyasi ham bunyodkor g'oyasining tarkibiy qismlaridan biridir. Vatanparvarlik – milliy va umuminsoniy qadriyatlarni bilish va hurmat qilish ekani. Katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar – millat taraqqiyoti, uning tarixi va madaniyati, xalqning yashash va

mehnat qilish sharoitlarini o'zida mujassamlashtirgan, turmush tarzi, axloqi, e'tiqodi, psixologiyasi bilan bo'liq bo'lgan an'analaridir.

Yoshlarda vatanparvarlik e'tiqodi shakllanishiga ta'sir etadigan qadriyatlar jumlasiga ona tili, milliy, diniy bayramlar, marosimlar, bolajonlik, oilaparvarlik, ota-onaga, qo'ni-qo'shniga, mahalla-kuyga, oqsoqollarga hurmat, mehr-muruvvatlilik, rahm-shavqatlilik, ozodalik, insonparvarlik, musofirparvarlik, halollik, iymonlilik, e'tiqodlilik, yurtimizning go'zal tabiatidan ilhom olishlik, uni saqlash madaniyatiga ega bo'lishlik va shu kabi boshqa qadriyatlar kiradi. Bular – umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar hamdir. Mamlakatimizda keng nishonlanayotgan mustaqillik bayrami, Konstitutsiya kuni va boshqa tantanalar ham vatanparvarlik e'tiqodi mustahkamlanishiga bevosita ta'sir etadi. Umuminsoniy qadriyatlarni bilish va hurmat qilish millat ma'naviy kamolotining omillaridandir.

Vatanparvarlik e'tiqodi - huquqiy, axloqiy burch va mas'uliyat tuyg'usi ekani. Vatanparvarlik har bir shaxs o'zining vatani, millati oldidagi burchi va mas'uliyatini to'la, to'g'ri anglashdir. Jamiyat taraqqiyoti natijasida inson kamoloti, yashashi va mehnat qilishi uchun imkoniyatlar kengayadi. Bu esa har bir fuqaro vatan oldidagi o'z burchi va mas'uliyatini anglashi zaaruriyatini keltirib chiqaradi. Jamiyatda yashash uning imkoniyatlaridan o'z maqsadlarida foydalanishgina emas, balki muayyan huquqiy, axloqiy mezonlariga rioya qilish hamdir, vatanga naf keltirishdir.

Burch – jamiyat har bir fuqaroning zimmasiga yuklangan vazifalarni ifodalaydi. Mas'uliyat esa shu burchni anglab, unga asoslangan faoliyat qilishga qaratilgan ma'naviy omildir. Burchni his qilmaslik, mas'uliyatsizlik, vatan, xalq manfaatlariga, istiqbol muammolariga befarq, loqaydlik bilan yondoshish belgisi hisoblanadi. Islom Karimov ko'rsatib o'tganidek, qadimgi ajdodlarimiz komil inson o'z burchi va mas'uliyatini anglashi haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aytsak, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Islom Karimov ko'rsatib o'tganidek, kishi qalbida haromdan xazar, nopoklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo'lishi kerak. Burch va mas'uliyat tuyg'usi shunda namoyon bo'ladi. Shunday odamgina nafsini tiyadi, birovning haqiga xiyonat qilmaydi, sadoqatli bo'ladi. Vatani, xalqi uchun jonini fido etishda ham o'zini ayamaydi. Buning aksi o'laroq, yolg'onchi, va'daboz kishida vatanparvarlik tuyg'usi bo'lmaydi. Manfaatparastlik yo'lida qilingan har bir ish, u qanchalik balandparvoz ta'rif-tavsiyalarga o'ralmasin, fatvolar to'qib chiqarmasin, baribir vatanga xiyonatdir.

Bozor munosabatlari sharoitida vatanparvarlik tuyg'usining ijtimoiy, tarbiyaviy ahamiyati yanada ortishi. Bozor – oldi-sotti bo'ladigan joygina emas, balki millat madaniyati, mas'uliyati, halolligining ham ko'rsatkichidir. Vatanparvar millatgina o'z mamlakatida halollikka asoslangan bozor munosabatlarini o'rgatishga qodirdir.

Shuning uchun ham vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishda shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarning nisbatini, bozor iqtisodiyotiga asta-sekin, ijtimoiy larzalarsiz o'tish siyosatining mohiyatini, shaxsiy, guruhiiy manfaatlarini mutloqlashtirishning zararli oqibatlarini, shaxsiy manfaatlar vatan, millat taqdiri, manfaatlari bilan bog'langandagina samarali bo'lishi mumkinligini ko'rsatish zarur.

Bozor munosabatlari sharoitida mo'may foyda ketidan quvib, millat va mamlakat manfaatiga xiyonat qilish - vatanfurushlikdir. O'g'irlik, poraxo'rlik, mansabni suiiste'mol qilish ham vatanparvarlik e'tiqodiga ziddir.

Bozor munosabatlari sharoitida kishilarda halollik, iymonlik, vijdonlik, birovning haqiga xiyonat qilishdan qo'rqish, mehr-muruvvatlilik, hayr-ehson qilish singari fazilatlarini shakllantirishda milliy-axloqiy qadriyatlardan, £ur'oni Karim, ¥adislari, sha'riyat qoidalarida oldinga surilgan ma'naviy komillik mezonlaridan keng foydalanish lozim.

Ona yurtimizda tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikni saqlashga intilish ham vatanparvarlik belgisi sifatida.

Bu boradagi mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalashda mustaqillik sharoitida demokratiyaning sharqona an'analari rivojlanishini, mohiyatini yoshlarga tushuntirish, ularda jamoatchilik fikrini hurmat qilish, uzoqni o'ylab ish tutish, ehtiros va hissiyotlarga berilmaslik, har qanday og'ir vaziyatda o'zini tutib tura olishi madaniyatini shakllantirishga katta e'tibor berish zarur.

Siyosiy partiyalar va ommaviy jamoatchilik tashkilotlari faoliyatiga imkoniyatlar yaratib berilishi, O'zbekiston Konstitusiyasi qabul qilinishi va respublika Prezidenti yashirin ovoz berish yo'li bilan xalq tomonidan saylanishi, ko'plab iqtisodiy, siyosiy masalalar yuzasidan referendumlar o'tkazib turilishi yurtimizda tomir otayotgan demokratiyaning belgisidir. Tinchlik, ahillik, osoyishtalik barqaror bo'lgan joydagina taraqqiyot bo'lishi, inson o'z orzu-umidlariga yetishi mumkinligini fuqarolar to'la anglab yetishi vatanparvarlik e'tiqodi burch, mas'uliyat darajasiga ko'tarilishiga olib keladi.

Vatanparvarlik - halol, ijodiy fidokorona mehnat qilish va Vatan boyligiga boyluk, qudratiga qudrat qo'shishdir. Insonni istiqbol va istiqbol manfaatlari yo'lidagi halol mehnat ulug'laydi. Vatanparvarlik o'lkamizning boyluklari, imkoniyatlaridan samarali, uzoqni ko'zlab, davr talablari va fan, texnologiya yutuqlariga asosanib foydalanish, faoliyatining har bir turi sohasida vatan, millat istiqbolini ko'zlab mehnat qilishdir. O'lkamiz resurslari talon-taroj qilinishiga, atrof-muhit ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, ishbilarmonlikning samarali, ijtimoiy foydali yo'llarini izlash, tijoratda chetdan mol olib kelib sotish bilangina cheklanmaslik ham vatanparvarlikning balgisidir. Chetga xom ashyo yuborib, tayyor mahsulot keltira bersak siyosiy, iqtisodiy qaramlikning bir shaklidan ikkinchi shakliga tushib qolishimiz mumkin. Bu muammolarni bilish ham yoshlarning vatan, istiqbol oldidagi mas'uliyatini kuchaytiradi.

Ishlab chiqarishning barcha sohalarini rivojlantirishda ilg'or fan va texnika yutuqlariga tayanish ham milliy vatanparvarlik mas'uliyatidir. Chetdan texnika va texnologiya sotib ola berish mamlakat uchun xatarli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini yoshlar to'la anglashi lozim. Tayyor mahsulotlar ishlab chiqarib ichki bozorni ta'minlash va eksport qilishni iqtisodiy taraqqiyotning bosh yo'li deb bilish ham vatanparvarlik e'tiqodining ko'rinishidir.

Tadbirkorlikka, mulkchilikning turli shakllariga munosabatlarni doim takomillashtirib borish, mehnat faoliyatining hamma jabhalarida vatan va millat istiqbolini o'ylab izlanishda bo'lish istagini turli tarbiyaviy omillar yordamida shakllantirmoq kerak. Xayr-ehsonni dunyoviy ishlar uchun qilishga ham yoshlarni o'rgatish zarur. Valol, fidokorona mehnat borasidagi vatanparvarlik barcha fuqarolarga xos fazilat bo'lishi lozim.

Vatanparvarlik – xalqaro munosabatlarda vatan, millat manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishdir. Xalqaro munosabatlarda qat'iyluk, donolik, uzoqni ko'ra bilishlik, xorijda ishlovchi O'zbekiston vakillarining obro'-e'tibori, ular mamlakatimiz, xalqimizning sha'niga-shan, shuxratiga-shuxrat qo'shishi ham vatanparvarlikdir. Xorijiy mamlakatlardagi bilimlar, amaliy malakalar, fan yutuqlari, ilg'or texnologiyalarni egallab, vatanimizda qo'llash boshqa davlatlarda ta'lim olayotgan yoshlarning vatan oldidagi burchi, mas'uliyatidir. Xorijiy mamlakatlarda o'zbek xalqining tarixi, boy madaniy merosi, hozir respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning mohiyati va maqsadlarini keng targ'ib etish ham barchamizning vatanparvarlik burchimizdir.

Harbiy vatanparvarlik an'analariga sodiq bo'lish va yoshlarni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash deganda O'zbekistonni himoya qilish - fuqarolarning muqaddas burchidir. Mustaqil O'zbekistonning harbiy doktrinasida belgilangan vazifalar, hozirgi xalqaro vaziyat, mustaqil

vatanimizning mudofaa qudratini oshirish zaruratini yoshlarning ongiga chuqur singdirish kerak tushuniladi. Yoshlar o'rtasida harbiy vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarni umumta'lim maktablaridayoq yo'lga qo'yish kerak. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ham harbiy vatanparvarlik tarbiyasiga katta e'tibor berish zarur. Vatanni himoya qilish - o'tgan ajdodlar ruhini shod qilish, ular qoldirgan moddiy, ma'naviy boyliklarni avaylab asrashdir, ular talon-taroj bo'lishiga, xalqning oru-nomusi, qadr-qimmati yerga urilishiga yo'l qo'ymaslikdir. O'zini himoya qilishga qodir bo'lgan mamlakatgina istiqboli porloq davlat bo'la olishi mumkin.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo'llari ma'naviy kamolot va jismoniy salomatlikdir. Vatan va xalq oldidagi burch va mas'uliyatni anglash, harbiy texnika va harbiy san'atni chuqur egallash ham vatan va millat manfaatlarini himoya qilishning yo'lidir. Harbiy nizom va intizomga rioya qilish, harbiy xizmatdagi yoshlar o'rtasida mahalliychilik, guruhbozlik va millatchilik hollarining oldini olish, harbiy jihatdan qudratli bo'lgan davlatgina o'z mustaqilligini himoya qila olishi mumkinligini yoshlarga tushuntirish zarur. Yoshlarni harbiy xizmatga kuzatish marosimlarini tantanali o'tkazish ham shu tadbirlar tizimiga kiradi.

Harbiy xizmatni o'tayotgan yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishda urush va mehnat faxriylari bilan o'tkaziladigan uchrashuvlardan ham keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

- Insonparvarlik – bu, o'zbek xalqi ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Shavqatsizlik va zo'ravonlik uning tabiatida yotdir. Bizning xalqimiz o'zining voqealariga boy ko'p ming yillik tarixi davomida ko'p narsalarni boshidan kechirdi – madaniyat, ilm – fan, o'z davlatchiligi yutiqdari nashidasini surdi, o'zaro nizolar, begonalar asorati alaminii tortdi, eng yaxshi o'g'il – qizlaridan judo bo'ldi. Lekin tarixning o'zi ham, omomsiz jangu – jadallar ham, tabiiy ofatlar va ochko'zlik ham xalqimizning insoniyluk tabiatiga dog' tushira olmaydi. O'zbek oilasida bugungi kunni yaxshilash va yorug'lik, bolalarga mehr, kattalarga hurmat, yaqinlarga va boshqalarning qayg'usiga hammadlik mujassamlashgandir>.

Insonparvarlik – jamiyatni ma'naviy yuksaklikka elituvchi omil, milliy manaviyatga, milliy ruh, urf – odatlarga, qadriyatlariga ko'rk bag'ishlovchi hususiyat, insonparvarlik – insonning insonga nisbatan mehr – oqibatlilik, muruvatlilik boshga og'ir kun tushganda hammadlligi, ezgu fikr, ezgu amali birligi, millatidan, dinidan, ijtimoiy ahvolidan qat'iy nazar barcha insonlarga nisbatan g'amxo'rlik.

O'zbek oilalarida bolalar qadim – qadimdan mehnat jarayonida tarbiyalangan. Poliz va bog'dorchilik ishlari bilan shug'ullanganda, hunarmandchilik qilganda, hashar, bayram, to'y va azalar bilan bog'liq turli ommaviy marosimlarda bolalar kattalar bilan bab – baravar mehnat qilishib, insonparvarlik xislatlarini kamol toptirishgan.

Insonparvarlik xislatlari milliy qadriyatlar bilan uyg'un holda shakllanadi. Buni o'zbek xalqi ikkinchi jahon urushi yillarida ming – minglab yetim bolalarga, nochor oilalarga boshpana berganida, tabiiy ofat yetgan Armaniston, Tojikiston xalqiga ko'rsatgan insonparvarlik yordamida, hozirgi kunda jahon miqyosida olib borilayotgan tinchlik siyosati misolida ko'ramiz.

Afg'oniston janglari, Chernobil halokati, Toshkentda 1999 – yil 16 – fevralda sodir bo'lgan mash'um voqealardan jabr ko'rgan oilalar va fuqorolarga ko'rsatilgan saxovat, mehr – muruvvat haqiqiy insonparvarlik timsolidir.

Insonparvarlik bor joyda odamlar o'rtasida kuchli mehr oqibat, do'stona munosabat, oila farovonligi ta'minlanishi tabiiydir. Shuning uchun bizning xalqimiz, hukumatimiz olib

borayotgan ijtimoiy siyosatning negizini insonparvarlik g'oyasi tashkil etadi. Bugungi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan islohatlarning mazmunida inson omili, uning bahti va farovonligi aks etadi. Shu bois mamlakatimizning kelajagi buyukdir.

Adolat va haqiqat g'oyasi ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini qamrab olmog'i darkor. Adolat va haqiqat g'oyasi qonunchilik faoliyatimizning zamini, bosh yo'nalishi bo'lmog'i shart. Davlatchilik va fuqarolik munosabatlari, mehnat va uy – joy, nafaqa va soliq, tabiyatni muhofaza qilish va jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalari, qo'yingki, hayotimizning hamma jabhalari anashu zaminga tayanishi zarur.

Inson manfaatlari himoya qilingan, qonun ustuvorligi ta'minlangan, har bir fuqaroning jamiyat va tabiyat qonuniyatlariga rioya etishi ongli va qat'iy yo'lga qo'yilgan jamiyat adolatli jamiyatdir. U yoki bu millatning, xalqning kuchi va buyukligi uning adolatparvarligi bilan belgilanadi. Adolat hukmron bo'lgan xalqning, mamlakatning kelajagi buyukdir. Jabr- zulm, nohaqlik, tengsizlik, millatchilik, mahalliychilik, milliy, diniy, irqiy kamsitishlik mavjud jamiyatda hech qanday totuv hayot, o'zaro ishonch bo'lmaydi, adolat tarozusi buziladi.

1999 – yil 16 – fevralda Toshkent shahrida Prezident va hukumat a'zolari joniga qast qilishga urungan, muhim binolarni portlatgan nokastlar el qarg'ishiga duchor bo'lgan vatan xoyinlaridir. Ularni kelajak avlod ham xoyinlar sifatida la'natlaydi. O'z vataniga xiyonat qilgan bu nobakorlar o'zgalar vataniga ham do'st bo'lmaydi. Bundaylarning na vatani, na uyi, na millati va na go'ri bor.

G'oya va mafkuraning tarixiy shakllarini, mazmun-moxiyatini azal-azaldan ezgulik va yovuzlik, bunyodkorlik va vayronkorlik urtasidagi kurash dialektikasi belgilab keladi, ya'ni boskinchilik, boshkalar xisobidan boyish, tajovujkorlik, akidaparastlik mafkuralarga karama-karshi ularok, ozodlik mustakillik va adolat goyalari uzluksiz mamaydonga chikib xalklarining muzaffar bayrogiga aylangan. Bunyodkorlik goyalari insonni ulug'laydi, uning ruxiga kanot bagishlaydi. Xar bir xalkning tarixi shu xalkdan yetishib chikkan buyuk siymolar, mard kaxramonlar va fidoi insonlar tarixi asosida bitiladi.

Манба

<http://istiqlol.samdu.uz/uzc/article/206>